

Uzbekistan Airways SITF-2022 sayyohlik ko'rgazmasida ishtirok etmoqda

2022 25 June

“Uzbekistan Airways” AJ O‘zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasidagi elchixonasi bilan birgalikda 2022-yil 23-26 iyun kunlari Seul shahrida bo‘lib o‘tadigan SITF-2022 xalqaro sayyohlik ko‘rgazmasida ishtirok etmoqda.

SITF-2022 turizm ko‘rgazmasi Osiyo mintaqasidagi eng yirik xalqaro sayyohlik ko‘rgazmalaridan biridir. Tadbir Koreya madaniyat, sport va turizm vazirligi, Milliy turizm tashkiloti va Visit Korea – Koreya sayyohlik agentliklari uyushmasi ko‘magida tashkil etildi.

Uzbekistan Airways vakillari ushbu ko‘rgazma doirasida hamkorlar bilan bir qator muzokaralar o‘tkazish, yangi tendensiyalarni o‘rganish, tajriba almashish va Osiyo mintaqasidagi turizm sohasining so‘nggi yangiliklari haqida ma‘lumot olishni rejalashtirmoqda. Mazkur turizm tadbiri Janubiy Koreyadan ikki tomonlama sayyohlik oqimini jalb qilish va ko‘paytirish, shuningdek, O‘zbekistonning sayyohlik salohiyatini va AJ aviatsiya imkoniyatlarini ommalashtirish imkonini beradi.